

Hamid Olimjon tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan anjumanga taklif qilamiz!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida buyuk o'zbek shoiri Hamid Olimjon tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan "Hamid Olimjon ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga taklif qilamiz!

Ҳамид Олимжон

**ЭНГ ГУЛЛАГАН ЁШЛИК
ЧОҒИМДА...**

*Энг гуллаган ёшлик чоғимда,
Сен очилдинг кўнгил боғимда.*

*Шунда кўрди кўзим баҳорни,
Шунда қалбим таниди ёрни.*

*Қушлар сайрар эжимга пайваст,
Мен севгининг бўйи билан маст.*

*Қуни билан далада қолдим,
Лолазорлар ичра йўқолдим.*

*Қучоқ-қучоқ гуллар терганим
Ва келтириб сенга берганим*

*Кечагидай ҳамон эсимда,
Ҳар сония, ҳар он эсимда.*

*Шундан бери тилимда отинг,
Шундан бери дилимда отинг.*

*Энг гуллаган ёшлик чоғимда,
Сен очилдинг кўнгил боғимда.*

**ЎЗБЕКISTON ҒАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛКЛОРИ ИНСТИТУТИ
ЎЗБЕКISTON ЁЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ**



ҲАМИД ОЛИМЖОН – 110

Таклифнома - дастур

Тошкент - 2019

Anjuman 2019-yil 13-dekabr soat 10:00 da O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining majlislar zalida boshlanadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz torko'chasi, 5-uy.